

“EDIGO” DOSTONIDAGI AN’ANAVIY FORMULALAR HAQIDA

Eshchanova Gavhar Otajonovna

Urganch davlat pedagogika instituti

“Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrası

dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

eshchanovagavhar@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10070629>

Annotatsiya. Ushbu maqolada turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan “Edigo” dostonida qo‘llanilgan an‘anaviy formulalar, ular eposning an‘anaviy negizini, o‘zgani tashkil etishi, bularning o‘g‘uz eposi an‘analari, xususan, ozarbayjon va turkman eposidagi formulalarga yaqin kelishi masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Xorazm dostonlari, epos, “Edigo”, barqaror formulalar, ifodaviylik va badiiylik, Tulumxo‘ja, o‘g‘uz eposi an‘analari, ozarbayjon va turkman eposi, Qo‘ng‘irot eli, «Sayod va Hamro» dostoni, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, «Asil va Karam» dostoni.

ABOUT THE TRADITIONAL FORMULAS IN THE EPIC OF "EDIGO"

Abstract. In this article, the basic formula “Edigo”, widespread among the Turkic peoples, is used, which reflects the traditional basis of the epic, its organization, their closeness to the traditions of the epic, in particular, to the formulas of the Azerbaijani and Turkmen epic.

Key words: Dastans of Khorezm, epic, “Edigo”, stable formulas, expressiveness and artistry, Tulumkhoja, tradition of oral epic, Azerbaijani and Turkmen epic, Kungirost region, dastan “Sayod and Hamro”, dastan “Ashik Garib and Shahsanam”, dastan “Asli and Kerem”

О ТРАДИЦИОННЫХ ФОРМУЛАХ В ЭПОСЕ «ЭДИГО»

Аннотация. Этой статье освещены распространенные среди тюркских народов традиционные формулы дастана «Эдиго», которые отражают традиционную основу эпоса, его организацию, их близость к традициям эпоса, в частности, к формулам азербайджанского и туркменского эпоса.

Ключевые слова: Дастаны Хорезма, эпос, «Эдиго», устойчивые формулы, выразительность и художественность, Тулумходжа, традиции устного эпоса, азербайджанский и туркменский эпос, Кунгиротский край, дастан «Саёд и Хамро», дастан «Ашик Гариб и Шахсанам», дастан «Асли и Керем»

Eposning shakllanishi va yashab qolishi uning shakliy komponentlarining barqaror an‘analar asosiga qurilganligi bilan xarakterlanadi.

Dostondagi voqealar tasviridagi barqaror formulalarning roli nihoyatda katta. Chunki, har qanday eposda barqaror formulalar o'zining originalligi va ixchamligi bilan ko'zga tashlanib turadi. Ularning ifodaviyligi va yuksak badiiyligi ham ana shunda. [1.178] Ular asrlar bo'yi shakllangan formulalar bo'lib, eposning an'anaviy negizini, o'zagini tashkil etadi. [2.209]

Folklorshunos S.Ro'zimboyev Xorazm dostonlarida qo'llanilgan an'anaviy formulalar haqida fikr bildirar ekan, ularning alohidalik xususiyatlaridan birini o'g'uz eposidagi formulalar bilan adekvat xususiyatga egaligida, deb belgilaydi. [3.37]

Turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan «Edigo» dostonida ham turli vaziyatlar bilan bog'liq rang-barang barqaror formulalar ishlatilgan bo'lib, ularning xarakter-xususiyati haqiqatan ham o'g'uz eposi an'analari, xususan, ozarbayjon va turkman eposidagi formulalarga yaqin keladi. Negaki, dostonchilik an'anaviylik tamoyillariga bo'ysunadi. «Kollektivlik an'anaviylik va individuallik doirasini belgilaydi. Dostonchining shaxsiy mahorati faqat ro'yobga chiqqan an'ana doirasidagina namoyon bo'lishi mumkin». [4.437]

An'anaviy formulalar epik vaziyat yaratishda katta rol o'ynaydi. «Ular doston kompozitsiyasi bilan mustahkam aloqada bo'lib, baxshiga voqealar silsilasini mustahkam esda saqlab qolishda katta yordam beradi, uni asar syujetidagi asosiy nuqtalar sari etaklab boradi». [5.39-43]

An'anaviy formulalar zimmasiga tushadigan ana shu omillar baxshilar yoki qissaxonlardan ushbu vositalarga ko'proq e'tibor berishni taqozo qiladi. Qolaversa, bu vositalar tinglovchida yuksak badiiy-estetik zavq uyg'otadi. Chunki formulalarning birortasi ham vaziyatdan tashqarida voqe bo'la olmaydi. Voqealar bilan aloqador vaziyatni ochib berishda ushbu vositalar o'ziga xos ochqich vazifasini o'tashadi.

«Edigo» dostonida ishlatilgan an'anaviy formulalarni vaziyat va idrok vazifasi nuqtai nazaridan quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Tulumxo'janing oilasi Edigoni qush uyasidan topib olganda Navbahor bibi tilidan berilgan misralardagi ushbu satrlar **shukronalik** vaziyatini yuzaga keltiradi.

Qish kunlaring bo'ldi emdi lolazor,

Bu bachchani ro'zi qildi birubor. [6.195.]

2. Tulumxo'janing o'z el-yurtidan ayrilib, darbadar holda ketib borishidagi qalb nidosini ifoda etuvchi **iztirob** vaziyatini yuzaga keltiruvchi misralar:

Baxt yulduzim maning erga urildi,

Bukun manga ro'zi-mahshar qurildi. [6.177.]

3. Edigoning qalmiq eliga ketishi oldidan ota-onasining uni yo'ldan qaytarish uchun qilgan yolborishlari asosida yuzaga kelgan **iltijo** vaziyatini ro'yobga chiqaruvchi misralar:

Sansan maning jon bog'imda targulim.

Oy bulbulim, xush ovozim ketmagil [6.208.]

Edigoning qalmiq eliga ketishidan ota-ona qalbidagi **afsuslanish** vaziyatini ifodalovchi satrlar:

G'afil bo'lib olg'ir qushim qochirdim,

Ohu nolam etti ko'kdin oshirdim,

Dargohingda omon tutg'ul, xudoyim.[6.211.]

Navbahorbibining Tulumxo'jaga nisbatan **tasalli berish** vaziyatini vujudga keltiruvchi misralar:

Saringdin do'nayin , mehribon xo'jam,

Kimsa holin yaratgandin ko'rmasmi.[6.179.]

Edigoning omon-eson qaytib kelishidan **umidvorlik** vaziyatini ifodalovchi satrlar:

Ochilur bog'imning gulu gulzori,

Bukun erta kelur og'am xabari.[6.256.]

Sog'inch girdobida to'lg'angan ota-onaning **alamdiydalik** vaziyatini ochib beruvchi iboralar:

Endi oqar bo'ldi ko'zimdin qonim,

Hasratingdin chiqar tanimdin jonim.[6.255.]

Edigodek xushbichim yigitning qaddi-qomatidan **faxrlanish** vaziyatini yaratuvchi iboralar:

Qaysi bir bog'ning gulisan,

Ne chamanning bulbulisan,

Ey to'ram, qaydin kelursan?[6.221.]

Foniy dunyodan **shikoyat** vaziyatini ifodalovchi misralar:

Bu dunyo deganing sayri-sayrondur,

Inson g'aflatdadur, mudom hayrondur [6.171.].

Murodi hosil bo'lgandan keyingi **shodlik va visol**, ko'rishish vaziyati bilan aloqador iboralar:

*Bulbul parvoz etib qo'nar gulina,
Sevar yorim, kelding kimning elina.[6.261.]*

Ushbu tasnif va tavsifni yana davom ettiraverish mumkin. Chunki an'anaviy formulalar dostonidagi har bir voqeani ramziy tasvirga olishda intensiv tarzda ishlatiladi.

Yuqorida keltirilgan ayrim iboralarni tahlil qilsak buni yaqqol ko'rish mumkin. Tulumxo'ja farzand dog'ida kuyib, sarson-sargardon bo'lib o'z elidan ketib borar ekan, tasodifan o'g'il farzandga duch keladi. Ushbu quvonchli vaziyatni yorqin ifodalash uchun Tulumxo'janing oldingi hayoti «qish» ramzida, farzandga ega bo'lgandan keyingi turmushi «lolazor» ya'ni «bahor» ramzi tarzida beriladi. Oxirgi misrada berilgan ikki misra Edigoning mahbubasi Oqsuluv parizod tomonidan aytilgan. Ular kelin-kuyov bo'lib, Qo'ng'iro't eliga kelishar ekanlar Oqsuluv parizod visol onlaridan mast bo'lib, turmush o'rtog'ini «Bulbul», o'zini esa «Gul» ramzi orqali tilga oladi.

An'anaviy formulalar xarakter jihatdan juda rang-barang bo'lsalar-da, mavzu guruhi jihatidan ijobiy va salbiy tasvirga ajraladilar. Ramz tanlab voqeani ochib berishda bu holat yaqqol namoyon bo'ladi.

Tulumxo'ja farzandsizlikdan jafo chekib, ig'vo bilan tuhmat jabriga duch kelib, To'xtamishxon saroyidan adolatsizlik asosida quvg'in qilinganida o'z omadsizligini «baxt yulduzi» qulab tushishi hodisasiga teng keltiradi, o'sha kunni esa «Ro'zi-mahshar» deb nomlaydi. Mana shu ikki ibora alamdiyda obraz ruhiyatini har tomonlama yorqin ifoda qila oladi.

An'anaviy formulalar orasida shunday shakllar borki, ular to'rt misraning uchtasini egallaydi:

*Anda qoldi toza gulim,
Uchdi qo'limdin bulbulim,
Lol(g)a do'ndi so'zlar tilim,
Olib qoldi Adigani.[6.204.]*

Bu misralar Tulumxo'janing orzu-armon bilan erishgan farzandining To'xtamishxon tomonidan tortib olinishidagi vaziyatni ifodalashda keltirilgan bo'lib, undagi an'anaviy formulalar

obraz ruhiyatiga juda mos tanlangan. Bu yerda saroyda qolgan «toza gul», qo'ldan uchgan «bulbul», lol bo'lgan «til» ramzlariga ishora qilish ruhiy holat tasvirida asosiy rol o'ynaydi.

An'anaviy formulalar dostonidagi har bir voqeani to'laqonli ochish uchun dastlabki vaziyatni tabiat hodisalari, uning quchog'idagi jonotlar orqali ramziy ifodalar bilan yorqin xususiyatga ega bo'lib, asar tarkibida muntazam ravishda istifoda etiladi. Ularning ijrochi tomonidan doimiy takrorlanishi barqarorlikka yo'l ochadi. Ayniqsa, og'zaki jarayonda ijrochi bunday tayyor formulalarga tez-tez murojaat qiladi. So'z yuritayotganimiz yozma nusxada esa yuqorida tahlilga tortilgan an'anaviy formulalardan tashqari, o'sha davr yozma yodgorliklariga xos bo'lgan ayrim ifodalar borki, ular matn davomida tez-tez ko'zga tashlanadi. Har bir she'riy parcha oldidan «bir g'azal aydi», «bir so'z aydi» iboralari, har bir she'riy parchadan keyin «alqissa», «alg'araz» kabi kirish iboralari, «unda», «undan keyin» ma'nosida «ersa» iborasi qo'llaniladi. Voqeadan voqeaga o'tishda esa «Bular yo'lda yurabersinlar. Emdi so'zni boshqa erdin aytay» yoki «emdi so'zni boshqa erdin eshiting» kabi formulalar qo'llaniladi.

Umumlashtiruvchi ifodalarda tez-tez «Yetti yashardan yetmish yashargacha», «Katta-yu kichik, zanon-u mardon» kabi iboralardan foydalaniladi. Obrazlar portretini chizishda «Yuzlari to'lgan o'n to'rt kechalik oyday», «Misoli oftobi xovardek» singari an'anaviy tasvirlar qo'llaniladiki, ularning barchasi qo'lyozma dostonlarga xos bo'lgan alohidalik xususiyatlardir.

Ushbu obrazli ifodalar Xorazmda tarqalgan barcha qo'lyozma dostonlar uslubi bilan to'la hamohang keladi. Jumladan, «Sayod va Hamro» dostonidagi Sayodxon obrazi portreti tasvirida o'sha iboralar quyidagicha qo'llaniladi: «Sayodxonning yuzinda munchoq-munchoq ter oqib, yuzi o'n to'rt kechalik oydek bo'lib o'ltiribdur».[6.40.]

Yuqorida an'anaviy formulalarning umumo'g'uz dostonlaridagi iboralar bilan hamohangligiga urg'u berib o'tilgan edi. Darhaqiqat, qayd etib o'tilgan iboralarning aksariyati boshqa qo'lyozma dostonlarda ozgina o'zgarish bilan qo'llanilaveradi.

«Oshiq G'arib va Shohsanam» dostonidagi ushbu misralarni qiyos qilib ko'raylik:

Boshinga do'nayin gul yuzli xo'jam...[7.117.]

«Asil va Karam» dostonida esa bu ibora sal o'zgarish bilan takrorlanadi:

Saringa do'nayin ola ko'z pari...[7.257.]

«Oshiq G'arib va Shohsanam» dostonining turkman versiyasida bu ibora:

Bashina doneyin, gul yuzli Akjam. [8.66]

tarzida, o'sha dostonning ozarbayjon versiyasida esa:

Bashina dondujum gul uzlu Sanam.[9. 189]

shaklida ishlatilgan.

Binobarin, ushbu formulalar uzoq asrlarning mahsuli bo'lib, faqatgina bir millat doirasida emas, balki ko'plab xalqlar ijodida mushtarak holda yashab kelgan. Bu holat ularning shakllanish ildizlarining nihoyatda qadimiyligidan darak beradi.

REFERENCES

1. Путилов Б.Н. Героический эпос Черногорцев, С.178.
2. Кыдырбаева Р.З. "Генезис эпоса "Манас". Фрунзе, "Илим", 1980, С.209.
3. Ro'zimboyev S. "Spesifika, tipologiya i poeziya Xorazmских дастанов". АДД, Т.: 1990, С.37.
4. Жирмунский В.М. Зарифов Х.Т. "Узбекский народный героический эпос", М.: "Гослитиздат", 1947, С.427.
5. Ro'zimboyev S "Xorazm dostonlaridagi epik klishe va stilistik formulalarning o'ziga xosligi haqida"// "O'zbek tili va adabiyoti", 1990, №2, 39-43-betlar.
6. Xorazm dostonlari. Oshiqnoma, I- kitob, 2006, Urganch. B.- 195; B.- 177;B.-208; B.- 211;B.- 179];B.- .256;B.- 255;B.- 221; B.- .171; B.- 261;B.-204. B.- .40.
7. Xorazm dostonlari. Oshiqnoma, II- kitob, 2006, Urganch. B.- 117; B.- 257. B.- 185.
8. Шасенем-Гарып, Ашгабат.: «Туркменстан», 1979, В.- 66.
9. Азербайжан мапаббат дастанлары, Бакы, «Елм», 197. В.- 189..

MODERN SCIENCE
& RESEARCH